

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**R.A.Axrorrova**

«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini ..... 317

**Г.М.Хошимов**

Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербальным компонентом темпоральности ..... 322

**N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxarov**

Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida ..... 329

**M.Sharipova**

Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili ..... 334

**A.O'.Abdullayev**

Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari ..... 337

**O'.A.Xudoynazarova**

Islom ta'lomi asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar ..... 344

**F.R.Turg'unova**

Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rghanish va auditoriyani jalb qilish ..... 349

**M.A.Abduvaxobova**

Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir ..... 354

**M.A.Kurbanov**

Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi ..... 358

**M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova**

Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish ..... 364

**M.Karimov**

"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari ..... 368

**X.P.Муртозеев**

Вижагиҳои савтӣ ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс ..... 374

**N.N.Odilova**

A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature ..... 384

**M.B.Shamsiyeva**

Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida ..... 388

**I.T.Rustamov**

Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni ..... 392

**K.Ю.Феруза**

Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности ..... 396

**C.Э.Сайдова**

Манзараи этнӣ-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ ..... 401

**G.A.Komilova**

Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasি sifatida qo'llanilishi ..... 406

**С.Ч.Мачитова**

Антрапонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдураҳмони ҷомӣ ..... 410

**M.A.Matmusayeva**

Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida ..... 419

**Y.Sh.Shuxratova**

Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir ..... 423

**H.H.Xoldorova**

Study of the concept of "Field" in modern linguistics ..... 426

**D.I.Mirzayeva**

Contextual-semantic analysis of fixed similes in english ..... 429

**K.T.Israilova**

Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi ..... 432



УО'К: 811.81.373

**ISLOM TA'LIMOTI ASOSIDA SHAKLLANGAN DINIY BARQAROR BIRIKMALAR****СТАБИЛЬНЫЕ РЕЛИГИОЗНЫЕ ОБЪЕДИНЕНИЯ, СФОРМИРОВАННЫЕ НА ОСНОВЕ ИСЛАМСКОЙ ДОКТРИНЫ****STABLE RELIGIOUS ASSOCIATIONS FORMED ON THE BASIS OF ISLAMIC DOCTRINE**

**Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna**   
Termiz davlat universiteti (DSc) doktoranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqola tilshunoslikda diniy barqaror birikmalarining shakllanishida islam ta'lilotining ahamiyati jihatlari haqida bo'lib, unda asosan o'zbek tilida mavjud bo'lgan muqaddas Qur'on karim hamda hadis ilmiga tegishli bo'lgan diniy birliklarning mazmun-mohiyati haqida so'z borgan. Shuningdek, unda diniy tilshunoslikning tarmoqlari bo'lmish religiolingvistika, hadisshunoslik yo'nalişlariga ahamiyat qaratilib, ushbu turdag'i terminologik sohaning semantik o'ziga xosliklari haqida ham ma'lumot berilgan. Maqola tadqiqoti diniy terminologiya tizimini o'rganishni semantik jihatdan olib borishga qaratilgan bo'lib, uning predmeti diniy barqaror birikmalar hisoblanmish maqol, matal, idiomalar, iboralarni semantik va etimologik, lingvokulturologik xususiyatlarini keng yoritishni o'z oldiga maqsad qiladi va ularning qo'llanilish o'rmini aniqlashtiradi. Shu bilan birga ularning o'xshash va farqli tomonlari, ilmiylik jihatlari, o'zga fan sohalari bilan beevosita alopasi, ular anglatgan milliy, madaniy, ma'naviy, e'tiqodiy tushunchalar, ushbu birliklarning asl ma'nosi va ko'chma ma'noda kelish holatlari ochib beriladi. Diniy barqaror birliklar – yaxlit bir butunlikni ta'minlovchi so'z birikmasi, gap ko'rinishidagi ko'chma ma'noli diniy lingvistik birliklardir. Diniy barqaror birikma tushunchasi ustida juda ko'p baxsmunozaralar mavjud bo'lib, dunyo lingvistlari bu borada qator mulohazalarni taqdim etadilar. Ushbu mulohazalarni yanada ochiqlash uchun jahon va mahalliy tilshunoslarning ilmiy qarashlariga murojaat etildi.

**Аннотация**

В данной статье речь идет о значении исламского учения в формировании устойчивых религиозных соединений в лингвистике, в основном в ней говорится о сути Священного Корана, доступного на узбекском языке, и о сущности религиозных единиц, связанных с наукой хадиса. Также уделяется внимание таким отраслям религиозной лингвистики, как религиолингвистика и хадисоведение, и даются сведения о семантических особенностях этого типа терминологического поля. Исследование статьи направлено на проведение изучения системы религиозной терминологии с семантической точки зрения: ее предмет направлен на всестороннее освещение семантических и этимологических, лингвокультурных особенностей пословиц, поговорок, идиом, выражений, которые являются религиозными стабильными соединениями, и их применение проясняет положение. При этом раскрываются их сходства и различия, научные аспекты, непосредственная связь с другими областями науки, национальными, культурными, духовными и религиозными концепциями, которые они представляют, первоначальный смысл этих единиц и обстоятельства их образного происхождения. дано. Религиозные устойчивые единицы – это религиозные языковые единицы, имеющие переносное значение в виде словосочетания, предложения, обеспечивающее полное единство. По поводу понятия устойчивого религиозного соединения ведется много дискуссий, и лингвисты мира высказывают по этому поводу ряд мнений. Для выяснения этих соображений были рассмотрены научные взгляды мировых и отечественных лингвистов.

**Abstract**

This article is about the importance of Islamic teachings in the formation of stable religious compounds in linguistics, and it mainly talks about the content of the Holy Qur'an, which exists in the Uzbek language, and the essence of religious units related to the science of hadith. It also focuses on the branches of religious linguistics, such as religiolinguistics and hadith studies, and provides information about the semantic peculiarities of this type of terminological field. The research of the article is aimed at carrying out the study of the system of religious terminology from a semantic point of view: its subject aims to comprehensively illuminate the semantic and etymological, linguo-cultural characteristics of proverbs, matal, idioms, expressions, which are religious stable compounds, and their application clarifies the position. At the same time, their similarities and differences, scientific aspects, direct connection with other fields of science, the national, cultural, spiritual, and religious concepts they represent, the original meaning of these units and the circumstances of their figurative origin are revealed. Religious stable units are religious linguistic units with a figurative meaning in the form of a phrase, a sentence, which provides a complete unity. There are a lot of debates on the concept of a stable religious compound, and linguists of the world present a number of opinions on it. In order to make these comments more open, the scientific views of world and local linguists were addressed.

**Kalit so'zlar:** islom ta'lomit, religiolingvistika, hadisshunoslik, mafkura, e'tiqodiy qarash, diniy barqaror birlik.

**Ключевые слова:** исламское учение, религиолингвистика, хадисоведение, идеология, религиозное воззрение, устойчивое религиозное единство.

**Key words:** Islamic teaching, religiolinguistics, hadith studies, ideology, religious view, stable religious unity.

## KIRISH

Tillararo va madaniyatlararo munosabatlar tilning leksik fondida bir qator o'zgarishlarni ta'minlaydi, ya'ni bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashish jarayonlari sodir bo'ladi. Monosemantik so'zlar o'zlashish jarayonida hech qanday muammo tug'dirmaydi, ammo ular polisemantik xususiyatlarni o'zida namoyon etganda, tilshunos-olim va olimalar oldiga bir qator vazifalarni yuklaydi, ular milliy-ma'naviy qarashlarini o'zida namoyon etuvchi, diniy tushunchalarini o'zida namoyon etgan diniy barqaror birikmalardir. Diniy barqaror birikmalar bugungi kunda keng va tor doirada tadqiq etilayotganligini hisobga olsak, biz ularni diniy frazemalar, frazeologik birlıklar diniy mazmun kasb etuvchi maqol va matallarda va boshqa turli ko'rinishlardagi barqaror birlıklarda his etamiz. Bugungi kunda ularning tadqiqotiga qiziqish sezilarli darajada ortib borayotganligini hisobga olsak quyidagi tilshunos-olimlarning ilmiy ishlari ushbu sohaning yanada rivojlanishiga turtki bo'layotganligining guvohi bo'lismiz mumkin.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Din va frazeologizmlar munosabatini tadqiq etishga urinishlar lingvistikada dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda. Jumladan, lingvokulturologik paradigma doirasida L.L. Grigoryeva rus, ingliz va arab tillari frazeologik birlıklarini [1; 21-b.], E.E. Chikina xristianlik bilan bog'liq turli ekstralolingvistik realiyalarni nomlovchi komponentlar ishtirokidagi frazeologik birlıklarni lingvokulturologik va lingvomamlakatshunoslik jihatdan; S.V. Bulavina rus va ispan tillaridagi diniy leksika ishtirokidagi pravoslav va katolik diniy ta'lomit singdirilgan frazeologik birlıklarni o'rganishga harakat qilingan [2; 200-b.]. O'zbek olim va olimalaridan N.M. Uluqov, M.Umarxo'jayev, Sh.S. Sirojiddinov, Sh.T. Maxmaraimova, Sh.M. Sultonova, M.R. Galiyeva diniy leksik qatlamni o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. O'zbek tilshunosi Baxtiyor Mengliyev barqaror birikmalar tarkibiga maqol, matal, aforizmlar, tasviriy ifoda kabi birlıklarni kiritadi va bu bilan ushbu turdagи lingvistik hodisalarni diniy ta'lomitlar asosida o'rganishni tavsiya qiladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz frazeologik sathida Bibliya iboralari asosiy manba bo'lib hisoblansa o'zbek tilida sahif hadislar asosida handa islom ta'lomitini o'zida aks ettirgan voqe'liliklar asosida bir qstor diniy barqaror birlıklar shakllangan. Biz ularni quyida ko'rishimiz mumkin.

Azob al-qabr-qabr azobi deya tarjima qilinuvchi ushbu birlik – sinov, inson vafoti bilan bog'liq tushuncha. Alloh tomonidan yuboriluvchi ikki farishta-Munkar va Nakir tomonidan marhumning chin islomiy e'tiqodi sinaladigan jarayon.

Alayhissalom (arabcha unga salom bo'lsin) islomda Sarvari koinot Muhammad salollohu alayhi vasallam hamda boshqa payg'ambarlar nomi tilga olinganda qo'llaniluvch ibora. Ushbu ibora ba'zida "Sallallohu alayhi vasallam" shaklida ham qo'llanilib, faqat Muhammad (s.a.v) payg'ambarga nisbatan aytildi.

Amri Ma'ruf – yaxshilikka buyuruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi marosim. Musulmon xalqining bir-birlarini haq yo'lga, go'zal ahloqli bo'lishga undovchi diniy ma'ruzalardir.

Arshi a'lo-taxt, balandlik ma'nolarini beruvchi, hadislarda ham e'tirof etilgan oyog'i bor taxt. Bundan tashqari, bu so'zning ikkinchi ma'nosini ko'tardi, baland yerga joyladi demakdir. O'zbek tilining izohli lug'atida arsh so'zining birinchi ma'nosini "Xudoning taxti" deb izohlash o'rinni bo'limgan, bunday ko'chma ma'no arshi a'lo birikmasiga mansub. Arshi a'lo birikmasi osmonning eng yuqori qismidagi taxt ma'nosini bildiradi va bu taxt Allohga nisbat beriladi [3; 600-b.]

Shar'iy ahkom. Farz, vojib, sunnat, mustahab, mubah, harom, makruh, mustakrah kabi ahkomlarni o'z ichiga oluvchi tushuncha. Odob, mandub, fazilat, nafl, tavavvu kabi ahkomlar esa amal qilinsa savob bo'luvchi, qilinmasa malomat bo'lmaydigan holatlardir. [4; 41-b.]

Ahl ul-kitob, (arab. kitob ahdi) mazmunini bildiruvchi o'z diniy kitobiga ega bo'lgan xalqlar, musulmonlardan oldin ilohiy kitobga ega bo'lgan xalqlardir. Haqiqiy dindorlar hamda "g'ayridin" majusiylar o'rtasidagi odamlar toifasi.

*Ahli Sunna val Jamoa –(sunna va jamoa ahli)-islom dini ta'limotiga ko'ra to'g'ri mafkuradan og'ishmay, sobitqadam bo'lib keluvchi mo'min-musulmonlardir. Hadisi shariflarda yahudiyarning 71 firqaga, masihiylarning 72 firqaga bo'linishi aytib o'tilgan. Payg'ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallam shunday deganlar: Mening ummatlarim 73 firqaga bo'linurlar, ulardan faqat bir toifasi mening va sahabalarim yo'lidan borurlar, qolganlari do'zaxiylardir. Ular ahli nor, firqai nojiya-do'zaxiy, do'zax ahli ham deyilur. Ahli Sunna val jamoa firqasi to'rt mazhabga bo'lingaydir. Ushbu jamoaga mansublik quyidagi holatlar orqali namoyon bo'ladi. 1. Halifalar hokimiyati qonuniyligini tan olish, bular: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali hokimiyatlaridir. 2. Sahih hadislar deya e'tirof etiluvchi Al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziyy, Abu Dovud, an-Nasoiy, ibn Moja to'plamlarini ishonchli deb bilish. 3. To'rt diniy-huquqiy mazhablardan biriga mansub bo'lishlik.*

[4; 41-b.]

*Baqo va fano* – arabcha barqarorlik va yo'qolish. O'zidan voz kechish, barcha yaxshi sifatlarni o'zida mujassam qilish deb ham tushuniladi. Tasavvufda o'zidagi barcha yomon sifatlarni yo'q qilish orqali Allohnning boqiy do'sti bo'lib qolish uchun Allohga yaqinlashishdir. Allohnning haqligi va ulug'ligi to'g'risidagi fikru zikrga g'arq bo'lib, bu foniylar dunyodagi jamiki narsalarni unutish *fano filloh* deb ataladi.

*Dor ul-baqo* – arabcha *boqiylik uyi* demakdir. O'lim mavjud bo'limgan, doimiy yoshlik hukm suruvchi, taomlar o'z-o'zidan hazm bo'lувchi, noz-ne'matlar zavol topmaydigan, chiqindilar bo'lmaydigan maskan.

*Dor ul-islom* (Islom hududi) – musulmon hukmdorlari qo'l ostidagi barcha musulmon mamlakatlarning umumlashma belgisi, "dor ul-harb"ga zid ravishda mamlakat hayoti to'laligicha shariat yo'li bilan tartibga solib turiladigan hudud.

*Baytul mol-* kirim-chiqim, maoshlar kabi masalalarni tartibga soladigan, musulmon mamlakatlarida davlatga tegishli molning muhofaza qilinishini ta'minlaydigan, davlat xazinasini tashkil etadigan hamda moliyaviy ishlarni tartibga soladigan huquqiy maqomga ega moliyaviy-idoraviy tashkilot hisoblanadi.

*Dor ul-islom-(arabcha islom diyor).*

*Dor ul-kufr-kufr diyor, urush diyor,*

*Do rut-tavhid-yakkahudolik diyor*

*Dor us –salom-tinchlik diyor*

*Dor ul-amin-xavfsizlik* diyor kabi. Ushbu diniy istilohlar Muqaddas Qur'oni karim yoki hadisi shariflardan olingan istilohlar bo'lmasdan balki, ushbu birliklar halifalik davridan qo'llanilganligini ta'kidlaydi.

*Salot al janoza* – marhumni dafn etishdan oldin o'qiladigan namoz.

*Zikr tushish-arabcha* Xudoni madh etish maqsadida ismlarni yodga olish, eslash. Zikr tushishda belgilangan tarzda tanani tutish-jalsa, nafas olishni nazorat qilish-habs an-nafs, zikr so'zlarni tananing ma'lum qismiga xayolan yo'naltirishni bilishi kerak.

*Arkon ad-din* – din asoslari. Islomda eng muhim sanalgan imon, namoz, ro'za, zakot va haj ibodatlaridir.

*Mavlid an-nabiy* – Islom ta'limotida Muhammad (s.a.v.) ning tug'ilgan kuni bilan bog'liq diniy bayram. Arabcha payg'ambarining tug'ilgan kuni demakdir. Islom ta'limotida oxirzamon bilan bog'liq quyidagi barqaror birliklar mavjud: oxirzamon-as sa'a, o'liklarning tirilishi – al-qiyama, Allohnning odamlarni sud qilishi-yavm ad-din, as-sual, yavm al-hisob – hisob kuni, al-mahshar, al-araq – Allah oldida qattiq terlash, al-mavqiv – uzoq vaqt kutish, gunoh va yaxshi amallarning taroziga tortilishi – al-mavazin, katta hovuz – al havd, ingichka ko'priq – as sirot kabi barqaror birliklar mavjud.

*Farz-arabcha kesmoq, majbur bo'imoq, qarz bo'imoq* – Islom dini shariatiga ko'ra, hech qanday shubhasiz, qat'iy dalillar bilan sobit bo'lgan amallar hisoblanadi. Farzni bajarish bilan kishi savob topadi. Uni qasddan bajarmagan kishi qattiq gunohkor bo'ladi. Ammo farz amalini uzrli sabab bilan tark qilgan kishi gunohkor bo'lmaydi. Farzni ochiq inkor qilgan kishi kofir bo'ladi.

*Kalimai shahodat* – guvohlik kalimasi. "Ashhadu allaa ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan rasululloh" (Guvohlik beraman Allohdan o'zga iloh yo'q, Muhammad uning rasulidir mazmunini anglatuvchi islom dinidagi 5 asosiy ruknning biri).

*Shaxsey-vaxsey* – motam yurishlari hisoblanib, shialarning hijriy taqvim bo'yicha muharram oyining o'ninchи kuni (Ashuro) imom Husaynga atab motam yurishlari o'tkazilib, o'zlariga tan jarohati

## TILSHUNOSLIK

yetkazishi hisoblanadi. Bundan tashqari, zulhija oyining o'n sakkizida "G'odir al-xum" Payg'ambar (s.a.v.)ning ushbu kunda Ali (r.a.) xalifalikni vasiyat qilgan kunini bayram qilishdir. Ushbu kun shia mazhabidagilar uchun muqaddas hisoblanib, ushbuunda ular ro'za tutishni tavsiya etadilar.

*Nikohi munqati'* – vaqtinchalik nikoh.

*Qazo va qadar* – Ulamolar "qazo" va "qadar"ni quyidagicha ta'riflaydilar: "Qadar – Allah Taoloning hamma narsalarning kelajakda qandoq bo'lishini azaldan belgilab qo'yishidir, qazo-o'sha narsalarni Allah taolo taqdiriga muvofiq ravishda vujudga keltirishdir". Ya'ni bu tushuncha islomda mo'min-musulmonlar e'tiqod qilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir. Qazo va qadar – Allahga imon keltirish asosidagi islom aqidalaridan biri hisoblanadi.

*Qoziyi ahdos* – shariat qoidalaridan tashqari dunyoviy qonunlarga suyanib ish olib boruvchi qozi. Ular fuqorolar o'tasidagi nizolarni hal qilgan, urf-odatlar, rasm-rusumlar va kundalik ishlarning bajarilishini nazorat qilgan. Mamlakatning harbiy ishlarini nazorat qiluvchi – *Qoziyi askariya* deb atalgan [5; 607-b.].

*Mavzu'* hadis – uydurma hadislar.

O'zbek tili og'zaki nutqida barcha tomonidan qo'llanib kelinadigan shunday iboralar borki, ularning kelib chiqishi – etimologiyasi va ular ifodalayotgan tuyg'u-tushunchalar bir-birini takrorlamaydi. Masalan: *qiyomat qarz, shukr qilmoq, dargohida qabul qilsin, shak keltirmoq, shakkoklik qilmoq, xo'ja ko'rsinga, oq fotiha, qo'lini halollamoq, xatna qildirmoq, jahannamga ravona qilmoq, Xizrni yo'qlasa ham bo'larkan, fotiha o'qimoq, to'rt tarafning qibla, Luqmoni hakim, luqmayi halol*.

Ayrim diniy barqaror birlıklar: *alifni kaltak demoq, tarki dunyo qilmoq, pirga qo'l bermoq, madrasa tuprog'ini yalagan, eshakka yosin o'qimoq* kabi birlıklar xalq og'zaki ijodiyotida eskirgan so'z va iboralar sifatida izohlanadi [7; 7-b.].

Keng qo'llaniluvchi diniy mazmundagi iboralarga *shaytonning etagidan tutmoq, bu dunyongni deb u dunyongdan kechma* kabi birlıklarni misol qilishimiz mumkin.

*Asfalasofilin* – tubanlarning tubani, eng yaramas, eng tuban. Do'zaxning eng tagi, Jahannam. Asfalasofilin bo'lmoq/asfalasofilinga ketmoq – 1) chuqurlikka, jarlikka tushib ketmoq; 2) *ko'chma ma'noda* halok bo'lmoq, halokatga uchramoq. Qani suyunchini chiqaravering, Mo'minjon aka! Padarla'nat zolim Nikolay podsho yiqilibdi, asfalasofilinga ketibdi. (M. Muhammadjonov. Turmush urinishlari).

*Xudodan bexabar* – Xudo bor deb o'ylamaydigan, xudodan qo'rqlaydigan, insofsiz. Qarisang ham, sen shumlikni o'ylaysan, Xudodan bexabar, qo'ygin, yotaylik. (Nurali).

*Bismilloh* (Allah ismi bilan). 1. Qur'on suralarining va umuman eski Kitob, hujjat, xat va sh.k.ning "Allohning nomi bilan ma'nosidagi boshlanish iborasi. ("bismillohi rahmonir rahiym") tarkibidagi so'z. Uni shayton, ha-ha, zavoddagi masterovoylar bilan bismillosi yo'q kitoblar aynitdi!

*Biru bor* – Yakkoyu yagona, yolg'iz (Allohning sifatlaridan biri). Qayerga borsang ham, biru bor seni o'z panohida asrasin.

Ayrim diniy barqaror birlıklar insonlarning falsafiy qarashlari asosida vujudga kelgan. Jumladan: *Vahdat ul-vujud* birligidir. Ushbu birlik Shayx ul-akbar taxallusini olgan milodiy XII asrda Ispaniyada yashab ijod etgan mashhur fiqxshunos olim Muhyiddin ibn al-Arabi nomi bilan bog'liq. Ibn al-Arabi ta'limotiga binoan "vujud" (Borliq) bilan "Olam" ikki alohida kategoriya hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, olam vujud bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Demak, u Mutlaq vujuddan bir narsadir: Olam Haqning ayni o'zi emasdир. U butunlay haq vujudida zohir bo'lgan bir narsadir [7]. Ibn al-Arabi ta'limotida Haq (Allah Taolo) istilohi turli ta'riflar, tavsiflar va talqinlar bilan bayon etiladi. Ibn al-Arabi gohida Haqni Xalq (yaratilgan mavjudotlar) bilan ayni bir narsa deb tushuntirsa, gohida ularni bir-biridan ayri holda talqin etadi. Bu esa uning qarashlarida ba'zi chalkashliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi, Natijada omma uning asl maqsadini noto'g'ri tushunadi [8; 139-b.].

**XULOSA**

Tilshunoslikda diniy barqaror birlıklarning semantik jihatini o'rganish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib, unda insonlarning falsafiy qarashlari, e'tiqodi, dingga bo'lgan munosabati, Allahga va uning payg'ambarlariga bo'lgan ishonchi keng aks etadi va u tilshunos-olimlardan o'rganilayotgan tadqiqot obyektini chuqur idrok etishni talab etadi. Zeroki, dinda adashishga yo'l qo'yilmaydi. Shunday ekan ularning tadqiqotida turli ko'rinishdag'i diniy-adabiy manbalar, mashhur hadisshunoslarning noyob asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Григорьева Л.Л. Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков): Автограф. Дисс...канд. Филол. Наук. – Казань: 2009. – 21 с.
2. Чикина Е.Е. Фразеология в аспекте христианской культуры (на материале немецкого, английского и русского языков). Монография. – Владимир: Изд-во Нижегор. Гос. Лингвист. Ун-та им. Н.А.Добролюбова, 2004. – стр. 300.
3. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. II nashr. – Toshkent: "Universitet" nashriyoti, 2023. – 600 b.
4. Husniddinov Z. Islom ensiklopediyasi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – b. 41.
5. Hasanbayev O'. Diniy-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'naviy soha targ'ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarining izohli lug'ati. – Toshkent: "Shamsuddinxon Boboxonov" NMIU, 2020. – 607 b.
6. Bozorboyev K. O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari. Filol.fan.nomz..diss.avtoref. – Samarqand: 2000. – B. 7.
7. Jahangiri Mohsen. Mohyi al-din ibn Arabi, The distinguished figure of Islamic Mysticizm. – Tehran: Tehran University Press, 2004.
8. Xolmo'minov J. Vahdat ul-vujud teologik ta'lomit va Naqshbandiya tariqati. Maqola. Konsensus xalqaro jurnali. 1-son, 1-jild. – Toshkent: 2020. – B. 128-139.